“Autosanoat agro lizing” MChJning
2025 y. “24” 12 0514 i/ch
-sonli buyrug’iga 3 - ilova

“AUTOSANOAT AGRO LIZING” MAS’ULIYATI ChEKLANGAN JAMIYATINING SOVG‘ALAR VA MEHMONDO‘STLIK XARAJATLARI BO‘YIChA SIYOSATI

Toshkent 2025-yil

1. Siyosatning maqsadi.

Ushbu siyosatning maqsadi – "Autosanoat Agrj Lizing" MChJ (keyingi o'rinlarda Jamiyat deb yuritiladi) da sovg'alar va mehmondo'stlik takliflarini olish yoki berishda shaffoflik, adolat va yuqori etik me'yorlarga rioya qilishni ta'minlash hamda korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va noqonuniy ta'sirlarning oldini olishdan iborat.

Siyosat Jamiyat xodimlari va uchinchi tomonlarni sovg'alar yoki mehmondo'stlik shaklidagi har qanday aloqalarini xalqaro standartlar, milliy qonunchilik, ichki qoidalar talablariga muvofiqlashtiradi. Ushbu talablar Jamiyatning ishonchli va mas'uliyatli biznes jarayonlarini rivojlantirish, uning obro'-e'tiborini saqlash va himoya qilishga xizmat qiladi.

2. Tadbiq etish doirasi.

Ushbu siyosat Jamiyat xodimlari va uchinchi tomonlar bilan bo'lgan munosabatlardagi sovg'alar berish, ulardan olish va mehmondo'stlik ko'rsatish bilan bog'liq jarayonlarga tadbiq etiladi.

Jamiyat tomonidan xodimlariga mehnat natijalari uchun rag'batlantirish, mukofotlash, esdalik sovg'alarini berish choralarini ko'rish ushbu siyosat doirasiga kirmaydi va ularni qabul qilish uchun qo'shimcha ruxsat talab etilmaydi.

3. Asosiy tushunchalar.

- **Sovg'a** - do'stlik va minnatdorlik belgisi sifatida ixtiyoriy berilgan har qanday turdagi moddiy, nomoddiy boyliklar va xizmatlar.
- **Mehmondo'stlik xarajatlari** – ushbu harajatlarga mehmonlarni qabul qilish, ularga xizmat ko'rsatish va ular bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etish uchun qilingan sarf xarajatlar (ovqatlantirish, transport, yashash joy bilan ta'minlash) va ko'ngilxushlik tadbirlariga qilinadigan sarflar (madaniy, sport, musiqiy, teatrlashtirilgan tomoshalar va shu kabi tadbirlar) kiradi. Shartnoma yoki boshqa kelishuvlardan kelib chiqadigan xarajatlar bundan mustasno.
- **Davlat organi** – davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma.
- **Davlat fuqarolik xizmati lavozimi** – davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozim.
- **Davlat fuqarolik xizmatchisi** – davlat fuqarolik xizmati lavozimida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.
- **Davlat ishtirokidagi tashkilot** - ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti yoxud to'liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkilot.

- **Siyosiy partiya** - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasi.
- **Xalqaro tashkilot** – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalardagi hamkorlikni amalga oshirish maqsadida xalqaro shartnomaga asoslangan hamda xalqaro huquqqa muvofiq ravishda tuzilgan davlatlar birlashmasi.
- **Sovg‘alar reestri** – xodimlar tomonidan qabul qilingan yoki berilgan sovg‘alar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ro‘yxati.
- **Uchinchi tomonlar** – korxonaning bir qismi bo‘lmagan, lekin uning faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.
- **Komplayens xizmati** – Jamiyat darajasida Komplayens funksiyasini tashkil qilish uchun mas’ul bo‘lgan xizmat.

4. Umumiy qoidalar.

4.1. Jamiyat xodimlari (keyingi o‘rinlarda xodimlar deb yuritiladi) biznesni rivojlantirish maqsadida sovg‘alarni xalqaro va rasmiy tadbirlar(konfrensiya, seminar, ko‘rgazma, uchrashuvlar va boshqalar)da berishi yoki olishi mumkin.

4.2. Xodimlar sovg‘alarni olish yoki berishda quyidagi:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, ichki tartib qoidalar, me’yor, siyosat va xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishi;

- sovg‘alarni olish va berish ochiq va oshkora bo‘lishi;

- Jamiyat obro‘siga (nufuziga) putur etkazmasligi;

- sharoit va mahalliy madaniy xususiyatlarga mos keladigan ko‘rinishga ega bo‘lishi;

- manfaatlar to‘qnashuvi yoki korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmasligi bilan bog‘liq umumiy talablarga rioya etishlari lozim.

4.3. Sovg‘alar va mehmondo‘stlik xarajatlari ularning qiymatidan qat’iy nazar, quyidagi holat (jarayon)larda:

- Jamiyat faoliyatida va ularning manfaatlarida qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir qilsa;

- tender va tanlov jarayonlarida qatnashayotgan kontragentlar bilan bo‘lgan munosabatlarda;

- hamkorlar bilan munosabatlarda kelib chiqqan holatlar bo‘yicha har qanday tekshiruvlar vaqtida;

- hamkorlar bilan nizolar bo‘yicha ko‘rilayotgan sud jarayonlari vaqtida;

- xodimlarning xizmat vazifalarini bajarish yoki bajarmasligi evaziga olish yoki berish mumkin emas.

4.4. Qiymatidan qat’iy nazar quyidagilar Sovg‘alar va mehmondo‘stlik xarajatlari sifatida olish yoki berish taqiqlanadi:

- milliy va xorijiy qonunchilikda taqiqlangan buyum, ashyo va xizmatlar;

- naqd pul, kriptovalyuta(raqamli aktivlar), qimmatli qog‘ozlar, zargarlik buyumlar, qimmatbaho metallar yoki boshqa pulga aylantirish mumkin bo‘lgan qimmatliklar;

- madaniy-tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan san’at asarlari va buyumlar;

- shaxsiy buyum (reklama maqsadida Jamiyat brendi tushirilganlari bundan mustasno)lar yoki xizmatlar(qimor o‘yinlari, ahloqiy me’yorlarga mos kelmagan tadbirlar va boshqa shunga o‘xshash biznes hamkorlikka aloqasi bo‘lmagan xizmatlar);

- Sovg‘alar va mehmondo‘stlik xarajatlarini qabul qiluvchining talabi bo‘yicha har qanday sovg‘a va xizmatlar.

4.5. Sovg‘alar va mehmondo‘stlik xarajatlarini qabul qilish yoki taqdim etishda uning qiymati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha 50 AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo‘lmasa, rozilik olish talab etilmaydi.

Umumiy qiymati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha 50 AQSh dollaridan ortiq ekvivalentda bo‘lgan har qanday sovg‘alar va mehmondo‘stlik xarajatlari qabul qilish yoki taqdim etishdan oldin yozma rozilik olish lozim.

Bunda, ularning qiymati:

- 50 AQSh dollaridan 150 AQSh dollarigacha ekvivalentida bo‘lsa, Komplayens xizmatining xulosasiga asosan xodimning to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbari yoki undan yuqori darajadagi rahbaridan;

- 150 AQSh dollaridan 300 AQSh dollarigacha ekvivalentida bo‘lsa, Komplayens xizmati xulosasiga asosan yo‘nalishi bo‘yicha Bosh direktorning o‘rinbosaridan;

- 300 AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo‘lsa, Komplayens xizmati xulosasiga asosan Bosh direktordan rozilik olinadi.

Rozilik olingandan so‘ng, sovg‘alar va mehmondo‘stlik xarajatlari qiymati (narxi), turi o‘zgargan taqdirda, belgilangan tartibda qayta rozilik olish talab etiladi.

Qiymatidan qat'iy nazar, har qanday olingan yoki berilgan sovg'alar alohida reestrlarda ro'yxatga olinadi.

Bir moliya yilida bir shaxsdan(ga) yoki tashkilotdan(ga) 3 martadan ko'p sovg'alarni qabul qilish yoki taqdim etish mumkin emas.

Davlat xizmatchilariga sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlarini taqdim etish maxsus vakolatli davlat idoralari(organlari) tomonidan ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

5. Sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlarini qabul qilish va berish bo'yicha alohida qoidalar.

5.1. Jamiyat xodimi mazkur siyosat talablariga rioya qilgan holda avvaldan yozma rozilik olib, sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlarini qabul qilishi mumkin.

Agar ularni qabul qilishdan oldin rozilik olishni imkoni bo'lmasa, qabul qilingan vaqtdan 5 ish kunidan kechiktirmasdan, sabablarini ko'rsattgan holda, yuqoridagi tartibda rozilik olishi talab etiladi.

Sovg'aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravariga teng yoki undan ko'p bo'lmagan miqdorda bo'lsa, u xodim ixtiyorida qoldiriladi.

Sovg'aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravaridan ortiq bo'lsa, sovg'a Jamiyat balansiga kirim qilinadi.

Xodimga taqdim etilgan tez yaroqsiz holga keluvchi mahsulotlar (tabiiy guldasta, donalik shirinliklar) sovg'a sifatida rasmiylashtirilmaydi va ular xodim tomonidan o'z xohishiga ko'ra tasarruf etiladi.

Xodim ushbu siyosat talablariga zid bo'lgan har qanday Sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlari takliflarini rad qilishi shart.

Agar, xodim oldindan rozilik olishni imkoni bo'lmagan holda sovg'ani qabul qilsa, keyinchalik sovg'a va uni qabul qilinishi siyosat talablariga zid deb topilsa, sovg'a qaytariladi.

5.2. Uchinchi tomonlarga mazkur siyosat talablariga rioya qilgan holda avvaldan yozma rozilik olib, sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlarini taqdim etish mumkin.

Har qanday sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlari oldindan rejalashtirilgan va tasdiqlangan dastur asosida uchinchi tomonlarga taqdim etiladi.

Har bir mexmondo'stlik xarajatlari bilan bog'liq tadbirlar yakunida qilingan xarajatlar asoslantiruvchi hujjatlar (savdo cheklari, invoyslar va bajarilgan ishlar dalolatnomalari kabi) ilova qilingan holda hisobot tuzilishi lozim.

6. Siyosat talablari buzilishi to‘g‘risida xabar qilish, tekshirish va javobgarlik choralari.

6.1. Har qanday shaxs ushbu siyosat bo‘yicha maslahat olmoqchi yoki siyosat talablari buzilishi holatlari bo‘yicha xabar qilmoqchi bo‘lsa, Jamiyatning +998 71-207-10-73 ishonch telefoni, “autosanoatagrolizing@mail.ru” elektron pochta manzili, https://t.me/autosanoatagrolizing telegram messenjeri,“https://aaleasing.uz/” veb-sayti orqali Komplayens xizmatiga murojaat qilishi mumkin.

Jamiyat siyosat talablari buzilishi haqida xabar qilgan shaxslar ta’qibga uchramasligi va so‘roviga asosan shaxsi ochiqlanmasligi kafolatlanadi.

6.2. Xodimlar tomonidan ushbu tartib-taomillarning buzilishi xizmat tekshiruvi o‘tkazilishiga sabab bo‘ladi va qonunchilikda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

7. Yakuniy qoidalar.

7.1. Mazkur siyosat talablarini amalga oshirish jarayoni alohida ishlab chiqilgan “Tartib” asosida olib boriladi.

7.2. Ushbu siyosat Odob-ahloq qoidalari, Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha siyosat hamda Xaridlar nizomi bilan hamohanglikda qo‘llaniladi.